



NOSIRXON TO'RA FAOLIYATI TARIXIGA BIR NAZAR

Qalandarov Hamza Hamroqul o'g'li
O'zMU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustabid sovet tuzumining O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonda o'tkazgan shafqatsiz qatag'on siyosati, uning mazmun mohiyati va oqibatlari haqida so'z boradi. Shungdek, atoqli diniy ulamo, Turkiston muxtoriyati maorif vaziri Nosirxon to'ra Kamolxon to'ra o'g'lining faoliyati tarixiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Qatag'on, Katta qirg'in, Nosirxon To'ra Kamolxon to'ra o'g'li, Turkiston muxtoriyati, OGPU, Uchlik, "Batraklar ittifoqi".

Abstract: This article talks about the cruel policy of repression carried out by the Soviet regime in Central Asia, including Uzbekistan, its content and consequences. Attention is paid to the history of the activities of Kamal Khan's stepson.

Key words: Repression, Massacre, Nasir Khan Tora Kamol Khan's great-grandson, Turkestan autonomy, OGPU, Uchlik, "Union of Soldiers".

Sovet hokimiyatining ma'muriy-buyruqbozlik tizimini qaror toptirishga qaratilgan keskin o'zgarishlari jamiyatda barcha tabaqalar singari diniy ulamolarga ham katta zarba berdi. Dindorlar va din ahllariga nisbatan tajovuzkor siyosat yuritildi. O'zbekiston SSRda o'tkazilgan yer-suv islohoti, "Hujum" kompaniyasi qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati shular bilan bir davrda amalga oshirilgan quloqlashtirish siyosati hamda 1937-1938 yillardagi ommaviy qatag'onlar davrida ruhoniylar va diniy ulamolar qattiq jabr ko'rdilar. Sovet hokimiyati o'zining salbiy natijalarini bergan islohotlarini o'tkazar ekan, jamiyatda kishilarning islomiy ma'naviyat ta'sirida asrlar osha yashab kelayotgan his-tuyg'ularini oyoq-osti qildi. O'zbekiston SSRda o'tkazilgan har bir tadbir jamiyat a'zolarining katta qismiga qarshi qatag'onlik muhitini vujudga keltirdi. Bunday ta'qib va tazyiqdan diniy ulamolar ko'proq jabr ko'rdi. Respublikadagi nomuqobil vaziyat, sovet hokimiyatining milliy o'lkalardagi zo'rvonlik siyosati oxir oqibat bu rejimga qarshi xalq ommasini uzoq vaqt davom etgan istiqloqlilik harakatini keltirib chiqargan edi. Sovet tuzumiga muxolifatda bo'lgan kuchlar hamda sovet davri tarixi adabiyotlarida «aksilinqilobchilar» deb baholangan tashkilotlar faoliyati dastak qilinib, diniy ulamolar tazyiq ostiga olindi. Ularga "bosmachilarga ko'maklashgani, bosmachilarni yashirgani, bosmachilikda ishtirok etgani, ular bilan sherikchilik qilgani, josusligi, aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zo bo'lgani, aksilinqilobiy targ'ibot yuritgani, terrorchiligi, bosmachilarga g'oyaviy rahnamolik qilgani" kabi ayblar qo'yilib, jazoga tortish ommaviy tus oldi. Mulla, shayx, qozi, imom, alam va mutavallilar boy, qulok bo'lgani yoki ularning yirik zamindorlarga xayrixohligi ham qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan.



1930-yil 22-fevralda boy va quloq bo'lgani, bosmachilarga ko'maklashgani, bosmachilarni yashirgani aybi bilan 11 kishi otuvga hukm qilingan. O'sha yilning aprel oyida aksilinkilobiy tashkilot guruhlarida ishtirok etgani va aksilinkilobiy targ'ibotchilikda ayblanib, 110 nafar diniy ulamolar qamoqqa olingan [1]. Ular OGPU qamoqxonalarda qat'iy rejim ostida saqlanib, tergovga berilgan. Bir kancha nufuzli islom dini arboblari bo'lgan mashxur ulamolar "aksilsovet millatchi musulmon ruhoniylari tashkilotini tuzganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi turli yo'llar bilan kurash olib borganlik va "panislomizm" g'oyalarini targ'ib qilganlikda ayblanib, o'lim jazosiga yoxud uzoq muddatli qamok jazosiga hukm kilingan. Shu tariqa mustabid sovet rejimi ulamolarni ham ommaviy ravishda qatag'on qilgan. O'zbekiston SSRda bu davrda ko'plab madrasalar, masjidlar va xonaqohlar buzib tashlandi. Buzilmay kolgan madrasalar va masjidlar xo'jalik omborlariga aylantirildi, qizil askar garnizonlarining qo'nalg'alari qilib qayta jihozlandi, chetdan kelganlar uchun turar joy sifatida berildi va turli maqsadlarda foydalanildi. O'zbek xalqi tomonidan 1300 yil davomida yaratilgan islomiy ruhdagi qo'lyozma asarlar va boshqa kitoblar yo'qotildi.

Sovet huquq-targ'ibot idoralari tergov jarayonida hech qanday aybi bo'lmagan, o'zining insoniy sha'ni va haq-huquqlarini talab qilib chiqqan diniy ulamolarning ko'pchiligini otuvga hukm qilgan. Jumladan, 1930 yil 27 oktyabrda bo'lgan "uchlik" yig'ilishining 5054-sonli ishida Nosirxon To'ra Kamolxonto'raev hamda safdoshlarining taqdiri hal qilingan.[2] 1930 yili Nosirxon To'ra Said Kamolxonto'ra o'g'li boshchiligida Farg'ona vodiysidagi yirik ulamolar sovet rejimi tomonidan qatag'on qilindi. Bu gal bolsheviklar avvalgi "ishlar"dan farqli ravishda vodiydagi yuzlab ulamolarni maxfiy va yashirin tarzda pinhona yo'qotib yuborishga harakat qildilar. Sovet davlati va chekistlarning bu "mutlaqo maxfiy va qat'iy" tamg'asi urilgan hukmlari O'zbekistonda 90 yildan ortik vaqt o'tgandan so'ng, 2021 yil kuzidan boshlab qisman oshkora qilindi.

Shu o'rinda Nosirxon to'raning hayot yo'li haqida to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. 1871 yili Namangan viloyatining hozirgi Kosonsoy tumanida tug'ilgan Nosirxon ilk saboqni Namangandagi madrasalardan birida mudarrislik qilgan otasidan olgan. So'ngra tahsilni Namangan va Buxorodagi madrasalarda, keyinchalik Kobul, Dehli, Bag'dod va Hijoz shaharlarida davom ettirgan. Turkistonga qaytgach, Namangandagi Mavlaviy va Mulla Qirg'iz madrasalarida bosh mudarris bo'lib faoliyat yuritgan va ko'plab ilm toliblariga tafsir, hadis, fiqhdan saboq bergan. 1912 yili Namangan shahriga qozi etib tayinlangan. Nosirxon to'ra 1913 yildan boshlab jadidchilik harakatida faol qatnashgan. Shuningdek, u "Sho'roi Islomiya" tashkilotining Namangan sho'basi rahbari, Namangan shaxar Dumasi a'zosi (1917)edi. Butunturkiston musulmonlari favkulodda IV qurultoyini 1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida



o'tkazishda jonbozlik ko'rsatdi. U 1917 yil dekabrda Turkiston Muxtoriyati hukumati tarkibiga maorif vaziri sifatida kiritildi. "Muxtoriyatning hukumat a'ziligiga saylangan Nosirxon to'ra Namangan va Farg'onada bo'lib o'tgan 60 ming, 100 ming kishilik namoyishlarni tashkil etib, xalqni Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashga ilhomlantiradi. Bolsheviklar tomonidan bu hukumat qonga botirilganidan so'ng esa Katta Ergash, Muhammad Aminbekning rahnamosi sifatida, istiqloqlilik harakatining g'oyaviy otalaridan biri sifatida faoliyat olib boradi. Erk va ozodlik uchun qo'lga qurol tutgan insonlar Nosirxon to'raning ma'ruzalari ta'sirida, u yozgan nashidalarini kuylab hayot-mamot janglariga kirishadi. O'sha yillar haqida Boymirza Hayit o'zining kitobida: "Nosirxon to'ra Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishida juda katta harakatni amalga oshirdi", deb yozadi. Ashurali Zohiriy o'z xotiralarida: "Agar Nosirxon to'ra tashabbus ko'rsatmaganda edi, Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan 4-qurultoy chaqirilmagan ham bo'lardi", deb eslaydi. Shu tarzda namanganlik alloma 72 kun yashagan bo'lsa-da, tariximizda katta mavqega ega bo'lgan muxtoriyatning tashkil etilishiga bosh-qosh bo'ladi.

1918-yil fevralda muxtoriyat hukumati bolsheviklar tomonidan ag'darilgach, Mustaf Cho'qayning yozishicha, Majlis a'zolari hay'ati va Nosirxon To'ra Namanganda bolsheviklar qo'lga tushadi. Amnistiya tufayli ozod bo'lgach, u bir yil mobaynida yashirin hayot kechirgan. 1919 yili Kosonsoyda "Milliy ittihad" tashkiloti yacheykasini tashkil qilgan. Katta Ergash va Madaminbek huzurida g'oyaviy rahnamo sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1922 yilda "Mahkamai shar'ia" tashkilotida ish olib borgan. Sovet rejimi tomonidan bir necha marta qamoqqa olinadi. 1924-1925 yillarda Samarqandda qamoqda o'tiradi, so'ngra Orenburgda surgunda bo'ladi (1925- 1928). Surgundan qaytgach, mavjud tuzumga qarshi faol kurashni davom ettirgan. Buxoro, Samarqand va Shaxrisabz shaharlarida bo'lib, aholini sovet rejimiga qarshi kurashga da'vat etgan.

Nosirxon to'ra diniy ilmlar qatori dunyoviy bilimlardan ham yaxshi xabardor bo'lib, uning Islom asoslariga oid risolalaridan tashqari tarix, falsafa kabi fanlarga doir asarlar ham yozgani ma'lum. Olimning yirik "Turkiston tarixi" asari(15 b o'limdan iborat) o'lkamizning uzoq yillik tarixini qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, "Orenburg maktublari" esdaligi va boshqa asarlari mavjud. Nosirxon to'raning shogirdlaridan yirik din olimlari, millatparvar va ma'rifatparvar arboblardan yetishib chiqqan.

1923–24 yillarda Nosirxon to'ra "Batraklar ittifoqi" deb nomlangan kambag'al-dehqonlar jamiyati faoliyatiga aralashadi va azaldan islomda mavjud bo'lgan vaqf xo'jaligi haqidagi tajribalarini ushbu jamiyatda joriy qiladi. Natijada qisqa muddatda



Batraklar ittifoqi undagi adolat ma'qul keladi va odamlar Batraklar ittifoqini tashlab Nosirxon to'raning atrofida to'plana boshlaydi.

Bundan tashvishga tushib qolgan sovet ma'murlari nima qilib bo'lmasin Farg'ona vodiysidan Nosirxon to'rani chiqarib yuborish kerak degan xulosaga keladi va natijada 1925 yilning avgustida Nosirxon to'ra Said Kamolxon to'ra o'g'li Samarqandga chaqirilib, qamoqqa olinadi va bir qancha bo'htonlarga asoslanib, uchlik qarori bilan Orenburgga surgun qilinadi.

Namangan, umuman, vodiy ahlining ko'plab arizalari natijasida Nosirxon to'ra 1928 yilning 10 avgustida Orenburg surgunidan qutulib vatanga qaytishga ruxsat oladi. Uning ziyoratiga butun vodiy ahli oqib keladi. Bu voqealardan tashvishga tushgan sovet ma'murlari Nosirxon to'ra haqida jiddiyroq rejalarni ishlab chiqa boshlaydi. Sovetlar Nosirxon to'rani qidirib topish va qo'lga olish jarayonida yuzlab odamni yo'q qilib yuborishgani, ulardan ma'lumot olish uchun inson zoti chiday olmaydigan qiynoqlarni qo'llagani, hatto ularning oilalari, qizlari, farzandlariga nisbatan qattiq zulm qilinganini ko'rgan turkistonlik ilm ahli sho'roviylarning qanchalik qattol ekanini anglab yetdi va taqdirlariga tan berishga majbur bo'lishadi.

1929 yil bahorida Nosirxon To'ra Avliyoota va Pishpek shaharlarida bo'lib, muridlari va shogirdlari bilan uchrashgan. U 1929 yil 29 oktyabrda Ranjitda kizil askarlar bilan bo'lgan jangda yarador bo'lgan.

Qo'lga olingan Nosirxon To'raga O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-67-moddalari, RSFSR Jinoyat kodeksining 58-2, 58-11-moddalarida ko'zda tutilgan jinoyatlarni sodir etganligi ko'rsatilgan va u o'z ayblarini qisman tan olgan. Hujjatlarda ko'rsatilishicha, Nosirxon To'raning qilgan "jinoyatlari" tergovda Gumbin, Samiulla Safiullaev, Momojon Umaraliev, Sadulla Mas'udov, Tojiboy Yuldoshev, Abdulaxad Nishonboev, Mansurboy Sherg'oziev, Isroilxo'ja Sarimsoqxo'jaev, Atantoy Sotilganov, Eshon Dadaxon Nosirxonov, Dadaboy qo'rboshi, Madumar qo'rboshi, Mirvali qo'rboshi, Mulla Fozil Bulmatov, Abbasxon Azizxo'jaevning "ko'rsatmalari" bilan fosh etilgan.[3] Nosirxon To'ra 1930 yil 15 sentyabrda dahshatli qiynoqlar ostida o'ziga berilgan barcha tergov hujjatlarini imzolaydi. 1930 yil 27 oktyabrda OGPUning O'rta Osiyodagi doimiy vakilligining uchlik kengashi (troykasi) Toshkent shahrida Lev Mironov raisligida o'tkazilgan yig'ilishda 5054-ish ko'rib, 103-bayonnoma asosida Nosirxon To'ra Kamolxonto'raev boshchiligida 92 nafar kishiga hukm chiqarilgan.

Arxiv xujjatlaridagi ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Nosirxon To'ra Kamolxonto'ra o'g'li 1931 yil 13 aprelda 58 yoshida Toshkent shahrida chekistlar tomonidan otib tashlanadi. Uning safdoshlari ham qatl qilingan. Qamoqdan faqat ayrim kishilar keyinchalik ozodlikka chiqqan.[4]



Nihoyat, O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi arafasida Sovet davrida qatag'on qilingan, biroq reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan 115 nafar o'zbekistonlik 2021 yil 25 avgust kuni Oliy sud tomonidan oqlandi. Oqlanganlar orasida Turkiston muxtoriyatining maorif vaziri bo'lgan, istiqloqlchilik harakatining g'oyaviy rahbarlaridan biri Nosirxon to'ra Kamolxon to'ra o'g'li ham bor.

Xullas, 1921-1941 yillarda O'zbekiston SSRda diniy ulamolar «bosmachilik»ka ko'maklashgani, ularni yashirgani, aksilinkilobiy harakatlarda ishtirok etgani, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot yuritgani, kolxozlar tuzishga qarshi chiqqani, qo'poruvchilik qilgani, diniy marosimda qatnashib soliq to'lamagani, yashirin tashkilotlarda ishtirokchiligi kabilar ro'kach qilinib, qatag'onlik girdobiga tortildi. Diniy ulamolarning bir qismi yuqorida ta'kidlangan davrda otuvga hukm qilindi, yana bir qismi uzoq o'lkalarga quloq sifatida surgun qilib yuborildi, ancha qismi esa vaziyat taqozosiga ko'ra o'z oilalari bilan xorijga chiqib ketishga majbur bo'ldi. Sovet hokimiyatining diniy ulamolarga nisbatan noinsoniy va zo'ravonlikka asoslangan siyosati tufayli respublikada islom ilmi va ma'naviyatidan mukammal xabardor bo'lgan ulamolar butunlay yo'qotilib, ularning o'rniga ko'r-ko'rona ijrochilar, diniy ilmdan yuzaki xabardor bo'lgan shaxslar diniy muassasalar rahbarligini egallashdi. Bunday kimsalar yuqoridan berilgan buyruqlarning ijrochisi edilar, xolos. Diniy ulamolarni qatag'on qilish jarayonida ma'naviy qadriyatlarimiz oyoq-osti qilindi. Ulamolar tomonidan saqlanib kelingan diniy va dunyoviy ilmar hamda yurtimiz o'tmishidan xabar beruvchi nodir qo'lyozmalar musodara qilindi yoki yo'qotib yuborildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshxo'jaev H., Qayumova I., O'zbekiston ulamolari. T., 2015. B. 24.
2. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob. T., "O'zbekiston" 2019. B.335.
3. Юлдашева, Н. Н. (2021). Собик Совет Иттифоқининг Қатағонлик сиёсатини юритишида "Тулаг" нинг ўрни. Scientific Progress, 2(4), 507-512.
4. Шамсутдинов Рустам. Қатағон курбонлари. – Т.: "Шарқ", 2007. - 496 б.
5. Шамсутдинов Р. Катарон килинган юртдошларни хотирлаб (Хужжатлар ва материаллар асосида) -Тошкент: Akademnashr, 2018, - Б. 211-213.
6. Наим Каримов 1937-1938 йиллардаги "Катта қирғин"нинг фожеали оқибатлари. – Т. 2015. - 160 б.
7. Қахрамон Ражабов. Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари. - Тошкент: "Фан", 2022. - 400 бет
8. Тарихнинг номаълум саҳифалари: Илмий мақолалар, хужжат ва материаллар, хотиралар. Бешинчи китоб. / Масъул муҳаррир Б.Ҳасанов ва бошқ. - Т.: Гафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. -1 5 2 б.